ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ONA TILI BOYLIGI – MADANIY NUTQNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

O'zbek tilida emotsional-ekspressivlikni hosil qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kuchli uslubiy vositalardandir. Undan o'rinli foydalanish mazmunni kuchaytiradi, nutqning ta'sirini orttiradi, nutqqa jo'shqinlik baxsh etadi. O'zbek tilida so'zni ko'chma ma'noda qo'llash orqali ham emotsiohal-ekspressivlik hosil qilish mumkin. So'zlovchi fikr ifodalash jarayonida narsa va hodisalarning turli xususiyat va belgilarini bo'rttirish, tinglovchida yanada aniqroq, ta'sirliroq tushuncha hosil qilish, shu bilan unda emotsional tuyg'u uyg'otish maqsadida so'zni ko'chma ma'noda qo'llaydi. Bunda predmet, jonivor va hodisalarga xos bo'lgan xususiyat-belginiing isondagi shunga o'xshash belgi –xususiyatga, harakatga qiyoslaydi. Shunday qilib, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z uslubiy bo'yoq oladi va tinglovchida fikr obyekti haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Masalan: toshyurak, «Lola»da ovqatlandik kabi.

O'zbek tilshunosligida tilning tasviriy vositalariga oid bir qator ilmiy ishlar yaratilgan, maqolalar yozilgan. Bu borada doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari ham himoya qilingan. Jumladan, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev[1], I.Qo'chqortoyev[2], M. Mukarramov[3], A.Shomaqsudov[4] va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va risolalari nutqning ifodali va ta'sirli bo'lishida tasviriy vositalarning o'rni masalasi tahlil qilingan.

Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Metafora (gr.metafora) narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zni ko'chma ma'noda ishlatishdir. O'zbek tiliga oid barcha manbalarda polisemantik so'zlar ham metafora usuli bilan ko'chish deb talqin qilinadi.[5] Lekin polisemantik so'zlarda ma'no ko'chishi sezilmas holga kelib qolgan bo'ladi va ularning har biri nominatsiya vazifasini bajaradi. Shu sababli ularni metaforalar sirasiga qo'shish to'g'ri emas. Metafora ma'lum so'zning nutqda gap tarkibida boshqa ma'no uchun vaqtincha xizmat qilishidir! Olmos qilich dastimda (Asqad Muxtor), O'zbekiston oq oltin diyori (Gazetadan).

Kumush choyshab yopib dala, qir
Qor qo'ynida uxlab yotadi.
Ufqlarga qizil xol tashlab
Zar soch tarab quyosh botadi. (Uyg'un).

Metaforalar nutqni obrazli qiladi, kishida emotsiya, estetik zavq uyg'otadi, obraz yaratishga xizmat qiladi, ona tilimizning inson faoliyati tabiat hodisalarining eng nozik nuqtalarigacha bo'lgan barcha tomonini nafis ifoda eta olishga qodir bo'lgan rango-rang serjilo vositalari mavjudligini ong-shuurimizda ravshan namoyon etadi.

Metonimiya (gr. metonumia) narsa va hodisalarni boshqa nom bilan atash demakdir. Metonimiyada mantiqan o'zaro bog'langan ikki so'zdan birining vazifasi ikkinchisiga yuklanadi, so'zning ko'chma ma'nosi esa tushunchalar o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan: Navoiyni o'qidim, zal kuladi. «Nargiz»da ovqatlandim (Og'zaki nutqdan) kabi.

Metonimiya badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi, nutqiy ixchamlik, fikriy lo'ndalik, musiqiylik, tasviriy kuchachaytirish uchun xizmat qiladi, poeziyada asarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Misollar: bir stakan ichdim (suv), bir kosani tushirdim (ovqat), «G'ayrat»da tushaman (bekat), Navoiyni o'qidim (to'plam, bayoz), paxtazorda zangori kema suzadi, shahar oyoqqa turdi, zal jim bo'ldi kabilar.

Sinekdoxa (gr.sinekdoha) metaforaning bir turi bo'lib, predmetning miqdori tushunchasi bilan bog'liq. So'zlovchi o'z nutqining ta'sirini kuchaytirish, fikrni bo'rttirish, tinglovchida fikr obyektiga nisbatan kuchli munosabat tug'dirish maqsadida butun o'rnida qism yoki aksincha, ko'plik o'rnida birlik yoki ak-

[1] Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 160.
[2] Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – T.: Fan, 1977. – B. 167.
[3] Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T.: Fan, 1984. – B. 160.
[4] Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. – B. 248.
[5] Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan.1983. – B. 88.

sincha ma'no anglatuvchi so'z yoki shaklni qo'llaydi. Masalan: tirnoqqa zor, tuyoq oldim. Boshda gul undirdi. Uyda kim bor? (hovlida deyilmoqchi?) Ey, mard dehqon, bugun hosiling taqdiri hal bo'layotir (Gazetadan).

Ko'rinadiki, sinekdoxa kuchli uslubiy vositadir. Undan o'rinli foydalanish mazmunni kuchaytiradi, nutqning ta'sirini orttiradi, nutqqa jo'shqinlik baxsh etadi.

Emotsional-ekspressiv leksika nutq vazifaviy uslublarining shakllanishida ta'sir etadi hamda nutqda ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

1. Umumiste'moldagi odam, uy, daraxt, yaxshi, oq, qora, men, sen, yur, ber kabi so'zlar uslubiy neytral so'zlar bo'lib, barcha nutq uslublarida ishlatilaveradi.

2. Bir qator so'zlar leksik – semantik jihatdan ayrim olinganda ham yo salbiy, yo ijobiy jilo bera oladi: chehra, jamol, ruxsor – ijobiy; bet, aft, bashara, turq – salbiy; bosh – neytral, kalla – salbiy kabi[1].

Bundan tashqari, ayrim so'zlar guruhi badiiy uslubga xos bo'lsa, (sabo, oraz, chehra, jamol, qalb, tabassum, tamanno, tasanno kabi), ayrimlari ko'tarinkilikni ifodalaydi va tantanali nutqqa xos bo'ladi. (navqiron, istiqbol, mag'rur, muqaddas, muhtasham, muazzam, azim, ajabtovur, hayratomuz, kabi).

Salbiy munosabat bildiruvchi so'zlar qatoriga siyosiy publitsistikada ishlatiladigan qora guruh, iblis devori, irqchilar, bosqinchilar, soxtalashtiruvchilar kabi so'z va iboralar ham kiradi. Ularni nutqda qo'llash orqali xalq, vatan dushmanlariga, bosqinchi to'da va boshqalarga g'azab, nafrat hissi kuchaytiriladi.

Evfemizmlar (yunoncha euphemismos eu – yaxshi, phemi-gapiraman) yumshoq, yoqimli, madaniy so'z – iboralardir. Ular, ko'pincha, aytish noqulay bo'lgan so'z (iboralar) o'rnida qo'llanadi va bu bilan fikr obyektiga ham, tinglovchiga ham hurmat-ehtirom ifoda etiladi: ikkiqat // og'ir oyoq // yukli, tug'di // ko'z yordi; kar // qulog'i og'ir, ko'r // ko'zi ojiz, semiz // to'laroq, erim, xotinim // turmush o'rtog'im, duduq // chuchuk til kabi.

Evfemizmlar nutqni go'zal, ifodani ravon, vaziyatni qulay, tinglovchini shod qiladi, kishining madaniyat darajasini ko'rsatadi.

Tabular ham evfemizmning bir turidir. Tabular insonlarning yovuz kuchlar haqidagi afsonaviy latifa to'qimalari, shuningdek o'rinsiz vahimalari tufayli yuzaga kelgan. Masalan, «bo'ri» **o'rnida qashqir, «qizamiq» o'rnida gul; «chayon» o'rnida eshak, otiyo'q deb ishlatilishi kabi.**

Ijobiy munosabat ifodalovchi so'zlar ham, ma'no e'tibori bilan evfemizmlarga yaqin turadi. Gap tarkibida ularning bo'yog'i aynan bo'lmasa ham, bir xil sinonimdir, lekin farqi shundaki, evfemik so'z bir nomni boshqa nom bilan ataydi.

Kakofemizmlar vulgar so'zlarning bir turidir.Lekin ular frazeologik ibora ekanligi bilan ajralib turadi.

Frazeologizmlar ma'lum bir so'zning nominativ ma'nosini uslubiy – ekspressiv bo'yoq, salbiy yoki ijobiy munosabat, ko'tarinki ruh, mag'rurlik yoki achinish ottenkalari bilan ifodalaydi. Ular uslubiy – ekspressivlik jihatdan sinonimlar bilan bir qatorda, tasviriy – obrazlilik jihatdan ulardan ustun turadi.

Frazeologizmlar barcha nutq uslublariga uchraydi. Masalan, o'qqa tutmoq kabilar harbiy sohaga, haqing ketmaydi, qo'ling dard ko'rmasin, misi chiqdi, tuyog'ini shiqillatdi, loy bo'ldi, paytavasi chiqdi, o'mbaloq oshdi kabilar so'zlashuv uslubiga; qo'l ko'tarmoq, ovozga qo'ymoq, qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq kabilar rasmiy nutqqa xosdir.

Frazeologizmlarda ham sinonimiya, antonimiya hodisalari mavjud: tepa sochi tikka bo'ldi – osmonga sachradi, og'zi qulog'ida – boshi osmonga yetgan, hafsalasi pir bo'ldi – tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, boshi g'ovladi – miyasi vang' bo'ldi (sinonimiya), to'g'ri yo'lga soldi – yo'ldan ozdirdi, tepa sochi tikka bo'ldi – boshi osmonga yetdi, dili ochildi – ta'bi xira bo'ldi, oralaridan qil o'tmaydi – oralaridan mushuk o'tgan (antonimiya).

Ko'p ma'nolilik frazeologizmlarda ham uchraydi: ovozi o'chdi: 1) jim bo'ldi (gapirmadi), 2) kelmay qo'ydi, 3) harakatdan to'xtadi kabi.

Frazeologizmlar nutqni ifodali qiladi, fikrni obrazli va bo'rttirib ifoda etadi, obrazlar xarakterini chizishda, tinglovchiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishda, nutq ta'sirchanligini oshirishda, nutq obyektini muayyan paytdagi ahamiyatini ta'kidlashda so'zlovchiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham badiiy nutqda, xalq og'zaki ijodida, jonli so'zlashuvda ulardan keng foydalaniladi.

Obrazlilik darajasi jihatdan ham sinonimik frazeologizmlar farq qiladi: boshiga yetmoq – boshini yemoq, og'zi qulog'ida – boshi osmonga yetdi kabilarning keyingisida ma'no kuchliroq, obrazliroqdir.

Frazeologizmlar ixchamlik va lo'ndalik uchun ham xizmat qiladi. Bir frazeologik butunlik ifodalagan mazmunni boshqa hech bir ibora, gap bilan berish mumkin emas. Biroq rasmiy ish uslubida qo'llanuvchi ayrim frazeologik butunliklar nominativ vazifa bajarishi monosemantik xarakterga ega bo'lgani sababli, ularning sinonimini qo'llash – «tarjima» qilish mumkin: imzo chekmoq – imzolamoq, qo'l ko'tarmoq – tasdiqlamoq // rozi bo'lmoq kabi. Bunday frazeologik birikmalarda uslubiy bo'yoq bo'lmaydi, yoki bo'lsa

[1] No'monov T., Babaxonova D., Saidova M. Maqol va hikmatlar ona tilimiz dur-u javohirlaridir. – Namangan: 2003. – B. 140.

ham juda kuchsiz.

Hazil-mutoyibalar metafora va metonimiyalarga o'xshaydi va maxsus leksik vositasi yo'q: istalgan so'z, ibora, gap nutq sharoitiga ko'ra hazil uchun xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, kulgi uzoq umr, vaqtichog'lik, salomatlik va mehnat unumdorligi garovidir. Shuning uchun xalqimiz uzoq o'tmishdan hazil va askiyaga ahamiyat berib kelgan. Qayerda askiya, nafis hazil bo'lsa, o'sha yerda kulgu, xursandchilik, ruhiy tetiklik, jismoniy bardamlik, dillarning ravshanligi, ishning unumi, og'irlikning yengillashuvi va ulkan ishga ishtiyoq, g'alabaga ishonch bor. Shuning uchun bo'lsa kerakkim, qayerda, qaysi kasb orasiga kirmang, jozibador askiyalar, ko'ngilochar hazil – mutoyibalarni eshitmay qolmaymiz.

Ulug' kishilar, rahbar xodimlarning hazili g'oyat katta tarbiya-ta'sir kuchiga ega.

Hazil-mutoyibalar yumoristik hamda chandish shaklida bo'lishi mumkin. Bu turlar badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida ham mavjud.

Har qanday hazil uslubiy rangdorlik, ekspressiya bilan bog'liq bo'lgan biror maqsad (samimiylik, vaziyatni yumshatish, yengil tanqid, yengil kulgi va boshqalar) ni nazarda tutadi. Masalan: Muxbir janoblari, bu savolga siz javob bering! (Umumiy kulgu, chapaklar, (Izzat Sulton.) Zuhraning so'zini Marasul tanqid va kulgini nazarda tutib takrorlaydi: Tulki xotinsiz! (Abdulla.Qahhor.)

«O'rtoqlik hazillari», «Yangi yil hazillari» va boshqalar ham kishida zavq-shavq uyg'otadi, ayrim zafarlarga chorlaydi, so'zlovchining xolis orzu-istagini ifoda etadi.

Hayotda shundayki, ayrim kishilar oddiy munosabatlarda ham maqol, matal va hikmatli so'zlardan, ayrimlari esa she'rlardan, ayrimlari tantanavor so'zlardan ko'p foydalanadi.[1] Badiiy va publitsistik uslubda ham xuddi shunday holni ko'ramiz. Bunda yozuvchilar o'z nutqlarini obrazli, shirali qilish bilan birga personajlarga nutqiy xarakteristika berishni ham ko'zda tutadilar. A.Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor asarlarida maqol, matal va hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Yolg'iz otning yo'rg'asidan chiqarmi chang (G'afur.G'ulom.) Lekin ularni buzib, noto'g'ri ishlatish («sichqonga don qayg'u, qassobga jon» deganlaridek) asrlar davomida yaratilgan xalq boyligiga e'tiborsizlik bilan qarash oqibatidir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslik tezkor globallashuvi jarayonida milliy-madaniy o'ziga xoslikni anglash va uni saqlash muammolariga jiddiy e'tibor qaratilganligi hamda tilimiz boyigani bilan harakterlanadi.[2]

Demak, til tasviriy vositalarining nutq madaniyatidagi o'rni va ahamiyati juda katta. O'zbek tilida nutqni to'g'ri, aniq, ta'sirchan, ifodali va mazmunli bayon qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, so'zni kochma ma'noda qo'llash muhim o'rin tutadi. Ular nutq mazmunini kuchaytirib, uni tinglovchiga tushinarli holda yetkazishda kuchli uslubiy vositalardan hisoblanadi. Shuningdek, maqol-matal va hikmatli so'zlar bayon qilinayotgan fikrning gultoji bo'lib, so'zlovchining nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, badiiy ko'rkini oshiradi. Ularda chuqur mazmun, falsafiy mushohadaga boy xulosalari, asr – asrlarga teppa – teng daxldor bo'lgan qimmatbaho fikr xazinalari gavdalanadi.

Maqollar, matal va hikmatli so'zlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga aloqador bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatmoq darkor.

Rezyume. Ishda o'zbek tilida emotsional – ekspressivlikni hosil qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxaning kuchli vositalar ekanligi ko'rsatilgan. Ulardan o'rinli foydalanish mazmunni kuchaytirishi, nutqni ta'sirchan qilishi misollar asosida ifodalangan. Bundan tashqari, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash orqali ham nutqda emotsional – ekspressivlik hosil qilinishi bayon etilgan.

Resume. Strong importance metaphor, metonymic and synecdoche in the production of emotional expressiveness in Uzbek language is demonstrated. Also. The usage of those necessarily can raise the meaning and making the speech sensitive are described. Apart from that, it is also highlighted that utilization of words in a portable meaning may work in the creation of emotional expressiveness.

Резюме. Статья посвящена вопросам образования эмоционально – экспрессивности речи, путём применения метафор, метонимий, синекдох, Умелое использование этих средств придаёт речи чувственность, усиливает содержательность речи, В статье освещены вопросы придачи речи путём переносного значения слов и образования эмоционально – экспрессивности.

[1] Iminov M., No'monov T., Babaxanova D. O'zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan: Namangan, 2007. – B. 110.
[2] Xolmonova Z., Valiyeva G., Muhammadaliyeva D. O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – T.: Mahalla va oila, 2022. – B. 183.